



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



ANDIJON DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI
Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60710400 – Energetika muhandisligi
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60710400 – Energetika muhandisligi

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

ANDIJON DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: MELIQO'ZIYEV MIRKOMIL VOXIDJON O'G'LI

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

falsafa doktori (PhD), dotsent



A'zo: MOHIT BHANDWAL

Amity University Tashkent

falsafa doktori (PhD)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260043
Xulosa raqami	1238
Xulosa sanasi	27.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"ANDIJON DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Andijon viloyati, Andijon shahri, Bobur shox ko'chasi, 56-uy. Guvohnoma: MAS № 0000277, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Energetika muhandisligi
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60710400
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000277, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60710400 – Energetika muhandisligi
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60710400 – Power Engineering
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60710400 – Энергетическая инженерия
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi / kechki
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil / 4,5 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Muhandis-energetik (elektr ta'minoti bo'yicha)
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	120 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Andijon viloyati, Andijon shahri, Bobur shox ko'chasi, 56-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar, ichki me'yoriy asoslar hamda ta'lim dasturini tashkil etish va boshqarishga oid materiallar belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida Andijon davlat texnika institutida 60710400 – "Energetika muhandisligi" ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-boshqaruv va ichki sifatni ta'minlash tizimi shakllantirilgani aniqlandi. Institut rektorining 2026-yil 5-yanvardagi 5-K-son buyrug'i asosida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul tarkibiy tuzilma belgilangan bo'lib, uning vakolatlari, vazifalari va mas'uliyati amaldagi me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solingani qayd etildi. Ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari hamda ta'lim dasturining istiqbolli rivojlantirish rejasi ishlab chiqilgani va ularni amalga oshirish bo'yicha zarur tashkiliy choralar belgilanganligi aniqlandi. Yangi ta'lim yo'nalishi uchun mas'ul tarkibiy tuzilmaning rasmiy buyruq asosida belgilanishi ta'lim dasturini samarali boshqarish va uning barqaror faoliyatini ta'minlash uchun muhim institutsional asos ekani qayd etildi. Umuman, tashkiliy-boshqaruv tizimi va ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha yaratilgan amaliyot belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar hamda ta'lim dasturining mazmuni belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida 60710400 – "Energetika muhandisligi" ta'lim dasturi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, oliy ta'lim yo'nalishlari klassifikatori hamda kredit-modul tizimi talablariga muvofiq ishlab chiqilgani aniqlandi. Ta'lim dasturining maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari va shakllantiriladigan kompetensiyalar o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, ular zamonaviy mehnat bozori talablariga mos ravishda shakllantirilgani qayd etildi. Energetika

muhandisligi yo'nalishida nazariy elektrotexnika asoslarini elektr ta'minoti tizimlarining amaliy jihatlar bilan uyg'unlashtirish bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil ekani aniqlandi. Ta'lim dasturi yakunida bitiruvchiga "Muhandis-energetik (elektr ta'minoti bo'yicha)" kvalifikatsiyasi berilishi uning kasbiy faoliyatga tayyorligini ta'minlashga xizmat qilishi qayd etildi. Umuman, ta'lim dasturining mazmuni, tuzilishi va kutilayotgan o'quv natijalari belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar hamda o'quv jarayonini tashkil etishga oid materiallar belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida 60710400 – "Energetika muhandisligi" ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish, fan dasturlarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish va o'quv amaliyotlarini yo'lga qo'yish hamda talabalar bilimini baholash bo'yicha zarur tizim shakllantirilgani aniqlandi. O'quv rejalari va fan sillabuslari kredit-modul tizimi talablari asosida ishlab chiqilgani hamda ularning ta'lim dasturi maqsadlari va kutilayotgan o'quv natijalari bilan uyg'unligi ta'minlangani qayd etildi. Energetika muhandisligi yo'nalishida laboratoriya stendlari bilan ishlash, elektr jihozlari va qurilmalari bilan xavfsiz muomala qilish hamda ishlab chiqarish amaliyotining yetarli hajmda tashkil etilishi bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda hal qiluvchi omillardan biri ekani aniqlandi. Shuningdek, o'quv natijalarini baholashning shaffofligi, xolisligi va akademik halollik tamoyillariga rioya etilishini ta'minlovchi mexanizmlar amaliyotga joriy etilgani kuzatildi. Umuman, o'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar hamda talabalar faoliyatini tashkil etishga oid materiallar belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida 60710400 – "Energetika muhandisligi" ta'lim yo'nalishi bo'yicha talabalarni qabul qilish, qabul natijalarini e'lon qilish, apellyatsiya berish, talabalar harakatini tartibga solish hamda ularni akademik va ma'muriy jihatdan qo'llab-quvvatlash jarayonlari amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq tashkil etilgani aniqlandi. Qabul mezonlari va tartiblari ochiq e'lon qilinishi, apellyatsiya jarayonlarining alohida tartib asosida yo'lga qo'yilgani hamda talabalar murojaatlarini ko'rib chiqish mexanizmlarining mavjudligi qayd etildi. Apellyatsiya tizimining alohida tartibga solingani talabalar huquqlarini himoya qilish, baholash

jarayonlarining shaffofligini ta'minlash va akademik adolat tamoyillarini mustahkamlash nuqtai nazaridan ijobiy amaliyot sifatida baholandi. Shuningdek, qabul parametrlarining institutning moddiy-texnik bazasi, laboratoriya imkoniyatlari va mavjud resurslari bilan mutanosib ravishda belgilanishi ta'lim sifatini ta'minlashning muhim omillaridan biri ekani aniqlandi. Umuman, talabalar faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar hamda inson resurslarini shakllantirish va boshqarish tizimiga oid materiallar belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida 60710400 – "Energetika muhandisligi" ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun zarur professor-o'qituvchilar, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi hamda o'quv-yordamchi xodimlar tarkibi shakllantirilgani aniqlandi. Professor-o'qituvchilar tarkibi soni va malakaviy darajasi bo'yicha amaldagi talablarga muvofiq ekani, ta'lim jarayonini sifatli tashkil etish uchun zarur kadrlar salohiyati mavjudligi qayd etildi. Energetika muhandisligi yo'nalishida ishlab chiqarish tajribasiga ega muhandis-pedagoglarning faol ishtiroki nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish hamda bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim omil ekani aniqlandi. Shu bilan birga, energetika korxonalari va soha tashkilotlari mutaxassislarini o'quv jarayoniga kengroq jalb etish ta'limning amaliy yo'naltirilganligini kuchaytirish va mehnat bozori talablariga mos mutaxassislar tayyorlashga xizmat qilishi qayd etildi. Umuman, inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar, moddiy-texnik baza, o'quv-uslubiy ta'minot hamda axborot-resurslarga oid materiallar belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida 60710400 – "Energetika muhandisligi" ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik baza, o'quv-uslubiy ta'minot va axborot-resurslar shakllantirilgani aniqlandi. Institutda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur o'quv auditoriyalari, laboratoriya xonalari, kompyuter sinflari hamda elektron ta'lim resurslari mavjudligi qayd etildi. Energetika muhandisligi yo'nalishida elektr ta'minoti laboratoriya stendlari, zamonaviy o'lchov asboblari va elektr xavfsizligini ta'minlovchi himoya vositalarining mavjudligi

talabalar kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Shu bilan birga, zamonaviy energetika sohasining rivojlanish tendensiyalarini inobatga olib, qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo'yicha laboratoriya va o'quv bazasini bosqichma-bosqich kengaytirish ta'lim dasturining amaliy yo'naltirilganligini yanada kuchaytirishga xizmat qilishi qayd etildi. Umuman, moddiy-texnik baza, o'quv-uslubiy ta'minot va axborot-resurslar belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish maqsadga muvofiq.
- ✓ Qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo'yicha o'quv bazasini kengaytirish tavsiya etiladi.
- ✓ Energetika korxonalari mutaxassislarini o'quv jarayoniga jalb etish maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilash.
- ✓ Elektr ta'minoti laboratoriya stendlari va o'lchov asboblari bazasini boyitish.
- ✓ Qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo'yicha o'quv bazasini kengaytirish.
- ✓ Energetika korxonalari bilan amaliyot hamkorligini rivojlantirish.


8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, "Andijon davlat texnika instituti"da 60710400 – "Energetika muhandisligi" bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik baza kompleks ravishda tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-huquqiy va institutsional asoslar shakllantirilgani, institut rektorining 2026-yil 5-yanvardagi 5-K-son buyrug'i asosida mas'ul tarkibiy tuzilma belgilangani aniqlandi. Ta'lim dasturi Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, oliy ta'lim yo'nalishlari klassifikatori

hamda kredit-modul tizimi talablariga muvofiq ishlab chiqilgani, o'quv jarayonini tashkil etish, ishlab chiqarish amaliyotlarini yo'lga qo'yish va o'quv natijalarini baholash bo'yicha samarali tizim yaratilgani qayd etildi. Qabul jarayonlari, apellyatsiya tartiblari hamda talabalar harakatini boshqarish mexanizmlari amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etilgani, professor-o'qituvchilar va o'quv-yordamchi xodimlar tarkibi belgilangan talablarga javob berishi, shuningdek, ta'lim jarayonini amalga oshirish uchun zarur o'quv auditoriyalari, laboratoriya xonalari, kompyuter sinflari va elektron ta'lim resurslari mavjudligi tasdiqlandi. Tahlil davomida aniqlangan ayrim jihatlar ta'lim dasturining amalga oshirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan, uni yanada takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega ekani e'tirof etildi. Umuman, ta'lim dasturining akkreditatsiya mezonlari bo'yicha belgilangan talablarni qanoatlantirishi tasdiqlandi va dastur akkreditatsiya talablari bo'yicha MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

